

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasida dotsenti Muratov Xusan Xolmuratovich taqrizi ostida

**Ismatov Ulfat Shuhratovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasida dotsent
v.b. +998909306091,
ulfat.shuhratovich@gmail.com,
https://orcid.org/0000-0002-9600-5441**

**O‘QUVCHILARGA ILIQ TUSLANISHGA EGA BO‘LGAN BUYUMLARDAN
TUZILGAN NATYURMORT KOMPOZITSIYASINI MOYBO‘YOQ TEXNIKASIDA
ISHLASHGA O‘RGATISH**

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san’at mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni axromatik va xromatik ranglar haqida hamda, moybo‘yoq texnikasida iliq tuslanishga ega bo‘lgan natyurmort kompozitsiyasini ishlashga o‘rgatish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Moybo‘yoq, kompozitsiya, natyurmort, tasviriy san’at, rangtasvir, axromatik, xromatik, tus.

**УЧИТЬ УЧАЩИХСЯ РАБОТАТЬ В ТЕХНИКЕ ВОДЯНЫХ ЗНАКОВ НАД
КОМПОЗИЦИЕЙ НАТЮРМОРТА, СОСТАВЛЕННОЙ ИЗ ПРЕДМЕТОВ С
ТЕПЛЫМ ОТТЕНКОМ**

Аннотация: В этой статье рассказывается об ахроматических и хроматических цветах на уроках изобразительного искусства, а также о том, как научить студентов работать над композицией натюрморта с теплым оттенком в технике водяных знаков.

Ключевые слова: Водяной знак, композиция, натюрморт, изобразительное искусство, живопись, ахроматика, хроматика, тон.

**TEACHING STUDENTS TO WORK ON THE TECHNIQUE OF WATERMARKING, A
STILL LIFE COMPOSITION MADE FROM OBJECTS THAT HAVE A WARM TUSK**

Annotation: This article reflects on the Achromatic and chromatic colours of the students in the fine arts training and, in the technique of watermark, on the performance of a still life composition with a warm Tusk.

Keywords: Watermark, composition, still life, fine arts, painting, achromatic, chromatic, tus.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ularning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirishda tabiatdagi shakllarning tuzilishi qonuniyatlarini to‘g‘ri ko‘rish va tushunish, ko‘rganini to‘g‘ri tasvirlashga yordam beradi. Ammo rassom bo‘lish uchun bular hali yetarli emas. Talaba naturadan rasm chizish asosiy qonun-qoidalarini yaxshi tushunib olish va eslab qolishi mumkin, lekin olgan bilimlarini amalda qo‘llay olmasligi mumkin. Shuning uchun talaba bilimdan tashqari shakllarni tasvirlash texnik kompetensiyalarga ham ega bo‘lishi kerak. Buning uchun talaba nafaqat naturaga qarab rasm ishlashni chuqur o‘rganmog‘i, balki o‘quvchilarga o‘rgatish uchun tasvirlashning metodik bosqichlarini ham chuqur egallagan bo‘lishi kerak.

Natyurmort tasviriy san’atning o‘ziga xos mustaqil janri. “Natyurmort” — (nature morte) fransuzcha so‘z bo‘lib, “jonsiz tabiat” degan ma’noni anglatadi va unda ko‘pincha mehnat

qurollari, sabzavot va mevalar, gullar, parranda hamda mayda hayvonlar tasvirlanadi, ya'ni natyurmort san'atda insonning maishiy hayotini aks ettiradi. Natyurmort XVII asrning boshlarida Gollandiyada paydo bo'ldi. Keyinchalik ko'plab mamlakatlarga tarqalib, ayniqsa, XVIII asrning o'rtalariga kelib tasviriy san'atda mustaqil janrga aylandi.

O'zbekistonda natyurmort janrida ijod qilgan rassomlardan; N. Kashina, Z. Kovalevskaya, Yu. Yelizarov, R. Ahmedov, G'. Abdurahmonov, N. Ten, A. Yunusov, A. Mirzayev, A. Ikromjonov kabi ko'plab natyurmort janrining ustalari va umidli yosh rassomlar tabiat yaratgan noz-ne'matlarga bo'lgan mehrlarini o'z asarlarida ifodalaganlar[1].

Rangtasvirda natyurmort ishlashni boshlashdan oldin uning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardan biri desak xato bo'lmaydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kulrang, qoramtir, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko'k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko'k ranglarning aralashmasidan hosil bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tish mumkin. Xuddi shunday, binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak, o'quv mashg'ulotida rangtasvirni ishlashda qo'yilmadagi narsa va buyumlarning yorug'-soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochib aniq ko'rsatish muhim ahamiyatga ega[2].

Natyurmort san'ati inson maishiy hayotining zarur buyumlari dunyosini aks ettiradi. Natyurmortni tasvirlashdan avval biror mavzuli natyurmort qo'yilmasini tuzib olish zarur. Natyurmort tuzish – ijodiy ishdir. Unda musavvirning didi va layoqati, kompozitsiyani fikrlay olish madaniyati namoyon bo'ladi. Tasodifan terib qo'yilgan narsalarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort tuzish maqsadiga qarab o'quv va ijodiy bo'lishi mumkin. O'quv natyurmortlari ijodiy natyurmortdan, albatta, farq qiladi. O'quv natyurmorti ma'lum dastur talabini o'rganish uchun bajariladi. Rangtasvir asari buyumlarning barcha xususiyatlari, shakli va rang, qattiq-yumshoqligi, sirtining yaltiroq yoki xiraligiga qarab tasvirlanadi. Haqqoniy tasvirlangan natyurmort asarlaridan mevaning mazasi, gullarning hidi kelib turadi. Bunga erishish uchun rangshunoslik nazariyasini, bo'yoqlarning xususiyatlarini yahshi bilmoq kerak. Tasvir va natura o'rtasida nisbat uyg'unliklarini to'la ifodalay olish talab etiladi[3].

Kompozitsiyadagi to'qlik, rang, faktura yoki masshtabni o'zgartirib qarama qarshilik hosil qilish orqali holat yoki harakatni ifodalash mumkin. Juda och jism kuchli soya tushib turgan to'q jism oldiga joylashtirilsa kontrastlik darajasi oshadi. Rang yoki to'qlik darajasidan tashqari rangdor yuzada kulrang, sovuq tusli yuzada iliq ranglar berib ham kontrastlikni kuchaytirsam bo'ladi. Yana bo'yoq surtmasini har xil qalinlikda qo'yish, mo'yqalamni turlicha ishlatish yo'li bilan ham fakturadagi kontrastlikni yaratish mumkin[4].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda mavzuli natyurmort kompozitsiyasini tasvirlash bosqichlarini ko'rib chiqamiz.



1-rasm. Moybo'yoqda natyurmort ishlashning 1-bosqichi

Birinchi bosqich: Ma'lum formatdagi qog'ozda natyurmort shunday joylashtirilishi kerakki, unda qog'ozning butun yuzasi naturani tasvirlashda faol ishtirok etsin. Agar tasvirlanayotgan jism (yoki jismlar guruhi) vertikal yo'nalish bo'yicha cho'zilgan bo'lsa, tabiiyki qog'ozning uzun tarafini vertikal holatda joylashtirish kerak. Tasvirlanayotgan jismlar o'lchami to'g'ri tanlanishi lozim. tasvir juda kichik yoki juda katta bo'lmasligi, hamda u bir burchakka taqalib qolmasligi kerak. Chizilayotgan rasm qog'ozning taxminan o'rtasida joylashtirilishi kerak. Har bir alohida holat uchun, qog'ozning hajmini hamda tasvirlanayotgan jismlar va umumiy tasvir maydonining o'zaro munosabatini hisobga olgan holda, alohida kompozitsiya tanlashni talab etiladi.

Natyurmort kompozitsiyani formatga to'g'ri joylashtirib, uning qalamda yoki moybo'yoqda umumiy ko'rinishini chizib olamiz. Mashq uchun maxsus romkaga tortilgan mato va moybo'yoqlarni tanladik (1-rasm).



2-rasm. Moybo‘yoqda natyurmort ishlashning 2-bosqichi

Ikkinchi bosqich: Natyurmortdagi mevalar, idishlar hamda fondagi asosiy tushlarni aniqlab, katta yuzalarga ishlov beriladi. Ulardagi ranglar sekin–asta to‘q rangdan ochlashtirib boriladi. Kartinadagi boshqa bo‘laklarining rangini fon rangi yordamida tayyorlanib borilsa bir–biriga uyg‘unlashgan, natyurmort kompozitsiyasi hosil bo‘ladi (2-rasm).



3-rasm. Moybo‘yoqda natyurmort ishlashning 3-bosqichi

Uchinchi bosqich: kartinaning kompozitsion qurilishi. Mevalarning boy rangi hamda buyumlarni keng rang surtmalarida berib boring. Tezda qarama–qarshi ranglar, yorqin tus va oq dog‘lar ko‘rinishlari sizni qo‘shimcha ishlov berish, soya chetlarini yumshatish ishlarini bajarishga undaydi(3-rasm).



4-rasm. Moybo‘yoqda natyurmort ishlashning 4-bosqichi

To‘rtinchi bosqich: Umumlashtirish yakunlash ishlari. Mevalar va buyumlarning rangdorligiga ishlov berib ranglarni yaxlitlashtirib boring. Alohida bo‘laklarning qirralari yonidagi jismlardan ajrating, kerakli joyini yumshatib aniqlashtirib boring. Ishni tugatishdan oldin uni ko‘zdan panaroq joyga qo‘ying. Ozroq muddat o‘tgandan so‘ng qaraganingizda undagi kamchiliklarni ko‘ra boshlaysiz va uni to‘g‘rilash mumkin bo‘ladi(4-rasm)[5].

Rangtasvirning asosiy vazifasi shundan iboratki, buyum va narsalarning hajmliligi, materiallik va rangdorlik sifatlarini natura qo‘yilmasidek aniq tasvirlash hamda qo‘yilmani yaxlit tusda yakunlash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Sultanov X.E. “Rangtasvir” (grizaylda rangtasvir ishlash)
2. Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guption Publications, an

imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 47

3. U.Sh.Ismatov. Rangtasvir (Grafik materiallarda tasvirlash). Elektron darslik. № 232-354
4. Sultanov X.E., Sobirov S.T. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. (1-sinf uchun). O'quv qo'llanma. - T.: "ISHONCHLI HAMKOR", 2021.
5. U.Sh.Ismatov. Rangtasvir. O'quv qo'llanma. "Nazokathon ziyo print". Chirchiq-2023